



Ibrohim NIGMATULLAYEV^a

^a Doctoral student

International Islamic Studies Academy of Uzbekistan

A.Qodiriy Str. 11, Tashkent, 100011, Uzbekistan

E-mail: nigmatullayevibrohim52@gmail.com

O'ZBEKISTONDA SHIA JAMOALARI AN'ANALARINING SHAKLLANISHI VA TRANSFORMATSIYASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston hududida istiqomat qiluvchi shia jamoalarining o'ziga xos urf-odatlari, an'analari va diniy-marosimiy hayoti tizimli hamda atroflicha tahlil qilingan. Tadqiqotda mazkur an'analarning tarixiy shakllanish bosqichlari, konfessional rivojlanish qonuniyatlari va zamonaviy davrdagi transformatsiya jarayonlari sotsiomadaniy kontekstda yoritib berilgan. Maqolaning o'ziga xos jihati shundaki, unda mamlakatimizdagi eng yirik ikki tarixiy markaz – Samarqand va Buxoro shia jamoalarining etnomadaniy hamda marosimiy hayoti ilk bor qiyosiy-vaziyatli o'rganilgan bo'lib, ularning o'xshash va farqli jihatlari ilmiy asoslab berilgan.

Ayniqsa, O'zbekiston shia jamoalari hayotida markaziy o'rinni tutuvchi «Ashuro» motam marosimining o'tkazilishi, uning kompozitsion tuzilishi va mahalliy (o'zbekona hamda tojikona) madaniyat ta'sirida qanday lokal xususiyatlarga ega bo'lgani chuqur tahlil ostiga olingan. Muallif bevosita dala-etnografik tadqiqotlari, so'rovnomalar va jonli kuzatuvlar natijalariga tayangan holda, jamoaning ichki submadaniyatiga xos bo'lgan «Ashuro», «Shome g'aribon» kabi diniy-motam marosimlari bilan bir qatorda, oilaviy-maishiy hayot bilan bog'liq «qoshchinon», «xinobandon», «gahvora bandon» hamda xalqona e'tiqod tizimiga oid «Bibi mushkulkushod» kabi marosimlarning o'tkazilish dinamikasini yoritadi. Maqola yakunida shia jamoalari madaniy merosining O'zbekistondagi millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitidagi o'rni hamda ijtimoiy integratsiya masalalari bo'yicha ilmiy xulosalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: shialik, eroniy, jamoa, urf-odat, an'ana, marosim, o'yaamullo, «Ashuro» marosimi.

FORMATION AND TRANSFORMATION OF THE TRADITIONS OF SHIA COMMUNITIES IN UZBEKISTAN

Abstract. This article presents a systematic and comprehensive analysis of the unique customs, traditions, and religious-ritual life of the Shia communities residing in Uzbekistan. The study contextualizes the historical stages of formation, the patterns of confessional development, and the contemporary transformation processes of these traditions within a socio-cultural framework. A distinctive feature of this paper is that it conducts a pioneering comparative and situational study of the ethno-cultural and ritualistic life of the Shia communities in Uzbekistan's two largest historical centers – Samarkand and Bukhara – scientifically substantiating their similarities and regional differences.

Particular emphasis is placed on a deep structural analysis of the «Ashura» mourning ritual, which holds a central place in the life of Uzbekistan's Shia communities, exploring its compositional structure and the specific local characteristics it has acquired under the influence of indigenous (Uzbek and Tajik) cultures. Drawing directly on empirical data from field ethnographic research, surveys, and participant observations, the author elucidates the operational dynamics of religious mourning rituals unique to the community's internal subculture, such as «Ashura» and «Sham-e Ghariban». Concurrently, the study examines domestic family life rituals, including «Qoshchinon» (eyebrow-plucking ceremony), «Khynobandon» (henna night), and «Gahvora Bandon» (cradle ceremony), alongside the folk-belief practice of «Bibi Mushkulkushod». In conclusion, the article puts forward scientific proposals regarding the role of the cultural heritage of Shia communities within the framework of interethnic harmony and religious tolerance in Uzbekistan, as well as prospects for their social integration.

Keywords: shia, iranian, community, custom, tradition, ceremony, ayaamullo, «Ashuro» ceremony.

KIRISH

Markaziy Osiyo o'zining konfessional xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Mintaqada hukmron sunniylik an'anasi bilan bir qatorda, asrlar davomida shia jamoalari mavjud bo'lib, o'z diniy amaliyotlari va mahalliy xususiyatlarini shakllantirgan. O'zbekistonda shia jamoalari an'analari asosan Samarqand va Buxoro kabi shaharlarda yashagan eroniy (forsiyzabon) jamoalar orasida keng tarqalgan.

Buxoroda forslar bugungi kunda «eroniy» nomi bilan mashhur bo'lib, ularning kelib chiqishi asli eronlik ekanligini anglatadi. Ularning alohida o'ziga xos muhim jihati etnik jihatdan emas, balki diniy mansubligi shialarning imomiylik oqimi ja'fariya mazhabiga e'tiqod qilishi bilan ajralib turadi.

Eroniy ayollarning taqvodorligi erkaklarnikidan sezilarli darajada farq qilib, masalan, ularning marosim ro'molidan foydalanishi va maxsus non pishirishida namoyon bo'ladi. Ko'pgina marosimlar Buxoro hududida amalga oshiriladigan marosimlarga o'xshash xususiyatlarga ega, ammo ba'zi holatlar mavjud bo'lib, ular eroniy nazarida qo'llaniladigan marosimlarga «o'zimizniki», «shia» kabi marosimlar maqomini beradi.

XX asrning 20–30-yillarida Markaziy Osiyoda ro'y bergan ijtimoiy-madaniy sohalaridagi o'zgarishlarga qaramay, Markaziy Osiyo eroniylari o'zlarining etnik o'ziga xosliklarini, diniy an'analari saqlab qolishga muvaffaq bo'lganlar.

Markaziy Osiyo eroniylari hozirgi O'zbekistonning bir qancha shaharlarida – Samarqand, Jizzax, Buxoro, shuningdek, yuqoridagi shaharlarning chekka hududlarida yashovchi oz sonli etnik-diniy guruh hisoblanadi. Ularning o'z etnik o'zligini saqlab qolishiga shialikning ja'fariya mazhabiga e'tiqod qilishi sabab bo'lgan.

ASOSIY QISM

Buxoroda sunniylar va shialar o'rtasidagi munosabatlar masalasiga kelganda shuni ta'kidlash kerakki, 1910-yilgi voqealardan oldin ikki diniy jamoa o'rtasidagi munosabatlar tinch va o'zaro hurmat asosiga qurilgan edi. Buxorodagi sunniy-shia qarama-qarshiligiga olib kelgan fojiali voqealarga amirlikning hukmron elitasidagi turli guruhlarining ichki siyosiy kurashi sabab bo'lgan. 1910-yil 8-yanvarda husayniyaxonada devorlari tashqarisida «Shaxsey-vaxsey» marosimini ommaviy ravishda o'tkazish qonli voqeaga turtki bo'lgan. Buxoro shia jamoasi

rahbari Xoji Mir Ali (1867–1925) urishayotgan ikki tomonning keyingi yarashuvida faol rol o'ynagan.

Sovet davrida ateistik targ'ibotning amalga oshirilishi, shahardagi barcha shia masjidilari va husayniyaxonalarining yopilganligiga qaramay, eroniylar jamoasi etnik va diniy o'zligini yo'qotmagan. Diniy marosimlar saqlanib qolgan va yashirin ravishda davom ettirilgan.

MUHOKAMA

Buxoroda sunniylar va shialar o'rtasidagi munosabatlar masalasini ko'rib chiqsak, shuni ta'kidlash kerakki, 1910-yilgi voqealardan oldin ikki diniy jamoa o'rtasidagi munosabatlar tinch va o'zaro hurmat asosiga qurilgan edi. Buxorodagi sunniy-shia qarama-qarshiligiga olib kelgan fojiali voqealarga amirlikning hukmron elitasidagi turli guruhlarining ichki siyosiy kurashi sabab bo'lgan. 1910-yil 8-yanvarda husayniyaxonada devorlari tashqarisida «Shahsey-vahsey» marosimini ommaviy ravishda o'tkazish qonli voqeaga turtki bo'lgan. Buxoro shia jamoasi rahbari Xoji Mir Ali (1867–1925) urishayotgan ikki tomonning keyingi yarashuvida faol rol o'ynagan.

Sovet davrida ateistik targ'ibot va shahardagi barcha shia masjidilari va husayniyaxonalarining yopilganligiga qaramay, eroniylar jamoasi etnik va diniy o'zligini yo'qotmagan. Diniy marosimlar saqlanib qolgan va yashirin ravishda davom ettirilgan.

Buxoro eroniylari uchun markaziy ibodat joyi Jo'ybor tumanidagi (Trikotajka) Xoji Mir Ali masjidi hisoblanadi. Shuningdek, beshinchi va oltinchi shia imomlarining maqbarasi va shia imomi Jafar nomi bilan atalgan shialar qabristoni ham shular jumlasiga kiradi.

Hozirda Buxoroda bitta shia masjidi va ikkita husayniyaxonada mavjud bo'lib, birinchisi Xoji Mir Ali masjidi bilan bir hududda, ikkinchisi Zirotbod qishlog'ida (Buxorodan 12 km. uzoqlikda) joylashgan.

O'sha paytida minbar yonida ikkita uchburchak shakldagi bayroq bo'lib, ularning tepasida ochiq kaft (panja) ko'rinishidagi shakl o'rnatilgan edi. Husayniyaxonada hovlisida sham o'rnatish uchun moslashtirilgan temir konstruksiya topilgan. Husayniyaxonani ziyorat qilish chog'ida unda to'rtta sham yonayotgan edi. Shuni ham aytish kerakki, ayrimlar juma namozini sunniy masjidlarda o'qiydi va buni o'z yashash joyining Xoji Mir Ali masjididan uzoqligi bilan izohlaydi. Bu holda namozshia qonun-qoidalari bo'yicha o'qiladi. Buxorodagi shia masjidi ajratib turadigan yana bir xususiyatlardan biri, bu xutba

talaffuz qilinadigan til bo'lib, Xoji Mir Ali masjidida u tojik, «Ashuro» kunlarida ba'zan fors, sunniy masjidlarda esa o'zbek tilida amalga oshiriladi.

NATIJA

Buxoro eroniylari «Ashuro» kunini 40 kun nishonlaydilar, Buxoro eroniylaridan farqli o'laroq, Samarqand eroniylarida «Ashuro» kuni 10 kun davom etadi.

Eronda yashovchi shialardan farqli o'laroq, Buxoro eroniylari o'zlarini qonga belangunga qadar azoblamaydilar, balki ko'krakka urish - latmiya bilan cheklanadilar.

Latmiya yoki latmiyat – muharram oyida o'tkaziladigan motam marosimining bir qismi bo'lib, odatda shialar tomonidan ko'krak qafasiga urib zarbalar berish, she'rlar o'qish orqali amalga oshirilib, qayg'uni anglatadi. Latmiya, shuningdek, quvonchni ifoda etadigan qarsak chalishni ham o'z ichiga olishi mumkin, ko'krakka urish esa qayg'uni ifodalaydi. Latmiya ko'pincha Muhammad Payg'ambar (s.a.v.) ning nabirasi Husayn ibn Alining shahidligi xotirasiga bag'ishlanadi.

Latmiya Muharram oyida o'tkaziladigan motam marosimining bir qismi bo'lib, u Karbal jangi (milodiy 680-yil) va Husayn ibn Alining Ubaydulloh ibn Ziyod qo'lida shahid bo'lishiga bag'ishlangan marosimlarning bir qismi hisoblanadi. Asosiy marosimdan keyin duo o'qiladi va hamma xotirlash dasturxoniga o'tiradi. Dasturxonda marosim taomlaridan palov, no'xat, qo'y go'shti, sabzili bug'doy bo'tqasidan tayyorlangan xalisa, novvot choy yoki qaynatilgan turshakdan tayyorlangan sharbat va gulob (tojikcha – gul suvi) bo'ladi. Gulobdan, ovqatga qo'shishdan tashqari, ta'ziya marosimidan oldin atrofni tozalash vositasi sifatida ham foydalanadilar.

Katta diniy bayramlarda marosim ovqatlarini tayyorlash, boshqa mintaqalar va shaharlardan mehmonlarni qabul qilish kabi tashkiliy tadbirlar jamoa a'zolarining xayr-ehsonlari hisobidan amalga oshiriladi.

Uy sharoitida «Ashuro» kunini o'tkazishda ham xuddi shunday holat mavjud bo'lib, unga ko'ra, uy ikki qismga bo'linadi, erkak va ayollar marosimni alohida-alohida o'tkazib, u duo o'qish, sham yoqish va ravza¹dan iborat. Umuman olganda, uy sharoitida o'tkaziladigan «Ashuro» kuni xudoyi marosimini eslatadi.

¹ Ravza – nasriy she'riy tarix.

O'rta Osiyo shialari orasida Buxorodagi «Ashuro» marosimining o'ziga xos xususiyati, bu unda teatrlashtirilgan tomoshalar va motam yurishlarining yo'qligi (shabih) bilan xarakterlanadi.

Ayollar o'rtasida «Ashuro» kunini o'tkazish umumiy tarzda mazkur marosimni amalga oshirishdan biroz farqlanadi. Oyamullo deb ataluvchi ayollar diniy rahbari islomning me'yoriy tomonlari va dinning xalq shakllari bo'yicha mutaxassis sifatida ishlaydi. «Ashuro» marosimida oyamullo imom va ravzaxon vazifalarini bajarishi mumkin hisoblanadi.

«Ashuro» marosimida ayollar tomonidan husayniyaxonada amalga oshirilgan unumdorlik bilan bog'liq marosimlarni ko'rib chiqish mumkin. Masalan, marosimga keluvchi ayollar o'z niyatlarini qog'ozga yozib kelishi va uni oyamulloga o'qitishi va yana niyati amalga oshishi uchun xayr-ehson qilishi, minnatdorchilik belgisi sifatida durrachalar olib kelib, uni minbarda qoldiradilar. Keluvchilar avlodi ko'payishini, yaqinlariga sog'liq va boshqalar tilab, niyatlar qilib, o'sha durrachalardan oladilar. Bu esa zardushtiylik dini e'tiqodlari bilan bog'liq hisoblanadi.

«Ashuro» marosimining ayollar tomonidan o'tkazilishi erkaklarniki kabi davom etadi, ammo oyamullo minbarga ma'ruza qilish uchun chiqmaydi, balki zinapoyaning birinchi pog'onasiga o'tiradi. Ayollar tomonidan o'tkaziladigan marosim dasturxonida Hazrati Abbos kulchasi muhim rol o'ynaydi. Kichik kulchalarning xamiriga za'faron, bodiyon va sut kabi mahsulotlar qo'shib non tayyorlanadi.

Husayniyaxonadan tashqari, oddiy odamlarning uylarida ham o'tkaziladigan boshqa tadbirlardan shia imomlari vafot etgan kunlar nishonlanadigan «vafot» va «mavlud»larni misol tariqasida keltirish mumkin hisoblanadi.

Buxoro eroniylari orasida hayot siklining marosimlarini inobatga olgan holda quyidagilarni ta'kidlash lozim hisoblanadi. Ko'pgina marosimlar Buxoro hududida amalga oshiriladigan marosimlarga o'xshash xususiyatlarga ega, ammo ba'zi marosimlarda tafovutlarga ko'zga tashalanadi. Farzand tug'ilishi, yangi tug'ilgan chaqaloqning birinchi oylari bilan bog'liq urf-odat va marosimlar Buxoro bilan bir xil bo'lib, quyida keltirilgan ayrim jihatlari bilan farqlanadi.

Ilgari vaqtlarda eroniylarning savodli va serfarzand ayollari «bibi vakil» yoki «ona bibi» deb atalib, tug'ruq vaqtida doyalik qilganlar, chaqaloq hayotining birinchi yillarida bola bilan bog'liq marosimlar hisoblangan «gaxvora bandon», «muljar» va boshqa marosimlarni o'tkazishda qatnashganlar.

Buxoro aholisi marosimlari ichida birinchi farzand tug'ilishi bilan bog'liq bo'lgan kelinning ona maqomiga o'tishi – «salla bandon» deb nomlangan marosim eroniylar orasida umuman nishonlanmaydi.

Eroniylar marosim o'tkazishda xinadan foydalanishga alohida e'tibor qaratib, bu marosim «xinobandon» deb ataladi. Xina bilan bog'liq urf-odatlariga 12 yillik muchal yil hisobi (muljar, muchal) kiradi. Qizlarning birinchi muchal yilida sochlari mayda qilib o'riladi, qo'l va oyoqlariga xinadan naqshlar chiziladi, o'g'il bolalar faqat o'ng yoki chap qo'llarining jimjimlog'iga xina qo'yadilar. Qo'llarga xina qo'yish an'anasi kekxa avlod vakillari muchalini nishonlash vaqtida ham amalga oshiriladi.

Yuqoridagilardan tashqari, eroniylarning to'y marosimlarida ham xina qo'yish bilan bog'liq an'ana mavjud bo'lib, u xinobandon deb ataladi. Buxoro eroniylari to'y marosimlarining aksariyati, asosan, Buxoroda o'tkaziladigan marosimlar bilan deyarli bir xil bo'lib, ayrim o'ziga xos farqli jihatlarga ega hisoblanadi.

Ma'lumotlarga ko'ra, eroniylarda shunday udum mavjud bo'lib, «quyosh qizning yuziga tushmasligi uchun» kelinni kuyovning uyiga quyosh botganda olib boriladi. Buxoroda nikoh to'yi yakunida, udumga ko'ra, avval kuyov do'stlari bilan, so'ngra kuyov kelinni gulxan atrofida aylantirib, chimildiqqa olib kirib ketadi. O'rta Osiyo mintaqasida nikoh marosimida keng tarqalgan «qoshchinon» marosimi (qosh va yuzni «tozalash») buxoro eroniylarida ham keng tarqalgan.

Turkiy tillarda so'zlashuvchilar orasida keng tarqalgan urf-odat va marosimlar buxoro eroniylarining kundalik madaniy hayotiga singib ketgan. Ziobod eroniylaridan farqli o'laroq, ular uzoq vaqtgacha o'zining Eron madaniy elementlari, udumlari, jumladan, nikoh an'alarini saqlab qolgan.

Masalan, ziobod eroniylari va buxoro eroniylari o'rtasidagi muhim farqlardan biri, bu muloqot tili bo'lib, ular shaharda, umuman aholining aksariyati singari, tojik tilining Buxoro lahjasida muloqot qilsalar, Ziobod qishlog'ida esa, tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, fors tilining Shimoliy Xuroson lahjalarini eslatadi.

Urf-odatlardan «xinobandon» marosimini o'tkazishning shartligi, chimildiqning bo'lmasligi, kelinning kuyovning uyiga kelishi yoki aksincha, kuyov tomonidan sotib olingan sandiq ustiga kelinni o'tqazib, yuqoriga «ko'tarish» udumini ziobod eroniylarining nikoh marosimi urf-odatlari sifatida keltirish mumkin hisoblanadi.

Eroniylarning «Navro'z» bayramini nishonlashi ko'p hollarda mintaqada davom etib kelayotgan

an'analardan unchalik farq qilmaydi. Eroniylarning so'zlariga ko'ra, Navro'z bayrami vaqtidagi muhim fursatlardan biri, bu «haft salom» (tojikcha – «yetti tilak»)ni yozish an'anasi hisoblanadi. Papirus qog'oziga oziq-ovqat bo'yoqlari bilan Saf surasi va yetti marta salom so'zini yozib, 20-martdan 21-martga o'tar kechasi barcha xohlovchilarga tarqatiladi. Yana shu sura piyolalarga ham yozilib, novvotli choy qilib ichiladi. Xuddi shunday harakatlar «haft salom» yozilgan qog'ozlar bilan qilinishi mumkin. Shunday qilib, ushbu harakat yil davomida Navro'zdan Navro'zgacha odamlarni kasalliklardan himoya qiladi.

Yana bir ajralib turadigan lahzalardan biri, bu «gashtak» bo'lib, o'tirish ma'nosini anglatadi. «Gashtak» deb nomlangan bunday tadbirlar O'rta Osiyoning tojik madaniy hududiga tegishli mintaqalarida keng tarqalgan. Mintaqada bunday an'anaviy

o'tirish shakllari o'zbeklarda «gap» (so'zma-so'z tarjima qilganda so'zlashuv), uyg'urlarda «meshrep» deb ataladi.

«Navro'z» bayrami kunida Eron eposi qahramoni Siyovush sharafiga xo'rozni qurbonlikka keltirish bugungi kungacha yetib kelmagan. Xo'roz Navro'z bayrami marosimlarida qurbonlikka so'yilgan qo'chqorning go'shtidan tayyorlangan taomning o'rnini bosadi.

Dafn marosimi mavzusi haqida gapirilganda, shuni ta'kidlash kerakki, eroniylarning bu marosimi aksariyat hollarda ko'proq konservativ tarzda va islomdagi shia mazhabiga yo'naltirilgan ko'rsatmalar asosida amalga oshirilishi saqlanib qolgan.

Eroniylar an'anasiga ko'ra, marhum tabiiy xushbo'y qo'shimchalar qo'shilgan suv bilan uch marta yuviladi. Shuningdek, shia qoidalariga ko'ra, tahorat olish bo'lib, u ko'p jihatdan Erondagiga o'xshaydi. Masalan, qo'llarni yuvishda sunniylar singari panjadan tirsakka qarab emas, balki aksincha yuviladi. Marhumni yuvuvchilar - murdasho'ylar faqat o'z eroniy marhumlarini yuvadilar, eroniylar «begona» (sunnii: o'zbek, tojik) murdasho'ylarni hech qachon chaqirmaydilar.

Uyda ovqat pishirish taqiqlangan uch kunlik motam marosimi mintaqaning aksariyat xalqlarida mavjud bo'lib, tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, bu marosim zardushtiylikdagi olov bilan bog'liq hisoblanadi. Ular marhumning oyoqlarini old tomonga qilib ko'tarib, ko'mayotganda boshini old tomonga qo'yib ko'madi, bu «inson qanday kelgan bo'lsa, shunday ketishi kerak» degan ma'noni anglatadi. Dafn qilishdan oldin, qazilgan qabrdan olingan tuproq kichik

bir qopchaga solinib, qabrdan unchalik uzoq bo'lmagan qamishdan yasalgan bo'yra o'tirgan imomga va boshqa hurmatga sazovor sayyidlarga olib boriladi. Imom tuproqqa duo o'qib, qamishga sepadi, uni to'kib, yumshatib, yana qopga soladi va marhumning boshi, ko'zlari va bo'yiga sepadi.

Sunniylarda imom qabr oldida duo o'qisa, eroniyalarda qabr ichida o'qiydi. Duo o'qilayotgan vaqtda marhumning qarindoshi marhumni ko'kragigacha ochadi, marhumani esa biroz bo'yigacha ochib, o'ng yelkasiga o'girib qo'yadi. Bu xuddi bolani beshikda tebratishga o'xshab ketadi. Shundan so'ng, murdaning yuzi, ko'zi va bo'yiga tuproq sepiladi.

Inson hayotida davomida duch keladigan «qora» kunlarni ketkazish maqsadida «mushkul kushod» deb nomlangan marosimni alohida ko'rsatib o'tish mumkin. Ushbu marosim O'rta Osiyoning tojik va o'zbek aholisi orasida keng tarqalgan. Marosimning mohiyati insonni qiynayotgan turli xil muvaffaqiyatsizliklar, qiyinchiliklar, omadsizliklarni bartaraf etishga qaratiladi. Marosim mintaqa xalqlari orasida «Bibi mushkul kushod» – qiyinchiliklarni hal qilishga yordam beradigan va omad olib keladigan pari haqidagi g'oyaga asoslanadi. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, bu tushunchalar ajdodlarning ruhiga aloqador hisoblanadi.

Mintaqaga islom dini kirib kelguniga qadar olovdan foydalanish nafaqat Buxoro eroniylari hayotida, balki O'rta Osiyo xalqlari hayotida ham muhim o'rin tutib, buning ildizi zardushtiylikka borib taqaladi. Olov mintaqadagi boshqa xalqlar singari, eroniyalarda ham doimo atrof-muhitni tozalaydigan unsur sifatida ko'riladi. Masalan, «Ashuro» marosimi, «Vafot» (dafn marosimi) va boshqa kunlarda husayniyaxonada yoqilgan shamlar buning yorqin isboti hisoblanadi.

Buxorodagi shia jamoalari hozirda shaharning ko'pgina tumanlarida joylashgan bo'lib, aholining ozchilik qismini tashkil etadi. Istisno tariqasida, Zirotbod qishlog'ini hozirgacha eng ko'p eroniylar yashaydigan shaharcha sifatida keltirish mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, hozirgi vaqtda Buxoro atrofidagi aholi bilan eroniy shialar o'rtasidagi nikoh juda kam uchraydi. Diniy xarakterdagi jamoaviy marosimlar eroniy jamoasi uchun asosiy ijtimoiylashtiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Shialikka murojaat qilish, birinchi navbatda, yaqin ijtimoiy munosabatlarga ega bo'lgan, «shia» muhitida yashaydigan va eroniy jamoasi a'zolari bilan yaqin munosabatlarni saqlaydigan, shuningdek diniy an'ana

va marosimlarda qatnashadigan shaxslar tomonidan qo'llaniladi.

Samarqand viloyati Panjob masjidida ayollar uchun «Ashuro» kuni munosabati bilan o'tkaziladigan marosimlar bomdoddan so'ng o'tkazilib, unda ishtirok etuvchilarning asosiy qismini yoshi katta ayollar tashkil qiladi. Yoshlar esa marosimda yordamchi sifatida ishtirok etadi. Marosimni o'tkazishga Bibi xalfa – otinoyi rahbarlik qiladi. Marosim davomida marsiyalar o'qiladi, sinazani qilinadi. Marosim ishtirokchilariga non va uzum (odatda mayiz) tarqatiladi.

Erkaklarda Muharram oyi kirib kelishi bilan «Ashuro» kuni munosabati bilan o'tkaziladigan motam marosimlari kechqurun xufton namozi o'qib bo'lingandan so'ng yarim kechagacha qirq kun davomida amalga oshiriladi. Marosim paytida qatnashuvchilariga gulob suvi sepiladi. Bundan ko'zlangan maqsad ishtirokchilarning marosim paytida vujudga keladigan g'am-qayg'u va iztiroblarini yengillashtirish hisoblanadi. Mazkur gulob maxsus gul – guli Muhammadydan tayyorlanadi. Ma'lumotlarga ko'ra, mazkur gul Imom Husaynning teri to'kilgan joydan o'sib chiqqan, deb qaraladi. Marosim davomida sepiladigan gulobga mushk-u ambar aralashtiriladi. Panjob masjidida o'tkazilgan motam marosimlarida ishtirokchilarning deyarli hammasi qora libos kiyib olgan bo'lib, ulardan ba'zilarining old tarafiga «yo Ali», orqa tarafiga esa «xodimul Husayn» deb yozilgan edi.

«Ashuro» marosimining asosiy tadbirini o'tkazish uchun erkaklar Muharram oyining 10-kuni bir joyga yig'ilib, ravzaxonlik qilinadi. Karbalo fojiasi tarixi hikoya qilinadi, sinazani qilinadi. Marosimlar peshin (zuhr) namoziga qadar davom atadi. Namoz o'qib bo'lingach, «ziyorati ashuro» o'qiladi. Bu «Ashuro» kunining maxsus duosi hisoblanadi. «Ziyorati ashuro» o'qib bo'lingach, ba'zilar «Sayyid Ibrohim» ziyoratgohini ziyorat qiladilar.

«Ashuro» marosimi kuni taomlardan osh damlanadi, sho'rva qaynatiladi. Avvalari marosim davomida ishtirokchilarga novvotli shirin choy tarqatilgan va u «nushi imomat» deb atalgan. Unga, albatta, gulob qo'shilgan. Bugungi kunda esa mazkur odat yo'qolib ketgan. «Ashuro» kunining ertasiga kechqurun «shome g'aribon» (g'ariblar kechasi) kuni o'tkaziladi. Unda Karbalo bilan bog'liq tarixiy voqealar ketma-ket navbati bilan hikoya qilinadi.

O'zbekiston – Eron do'stlik jamiyati raisi G'ulomov Ravshan (Ravshan polvon, 1960-yil tug'ilgan)ning bergan ma'lumotlariga ko'ra, Samarqand va Buxorodagi shia jamoalari «Ashuro»

kunini bir kunda nishonlaydi. Muharram oyining boshlanishi, «Ashuro» kunini belgilash va «Ashuro» bilan bog'liq bo'lgan «arbain» ziyorati Eronniki bilan mufoviqlashtiriladi. Qolgan barcha bayramlar, urf-odatlar, an'ana va marosimlar mahalliy xususiyatlardan kelib chiqib amalga oshiriladi.

Samarqand shia jamoalarida Navro'z bayrami ilgari qariyb qirq kun bayram qilingan bo'lib, jiyda gullaguniga qadar davom etgan. Bugungi kunga kelib, mazkur bayram bir hafta davomida nishonlanadi. Barcha xonadonlarda «Haft sin» dasturxonini bezatiladi. Navro'z kun va tun tengligi, yangi yil sifatida bayram qilinadi. Bayram erta tongdan boshlanadi. Dastlab qabristonga borib, marhumlar haqiga duoyi fotiha qilinadi, so'ngra barcha yoshi ulug'lar ziyorat qilinib, ularning holidan xabar olinadi. Mazkur ziyorat amalga oshirib bo'lingach, qarindosh, qo'ni-qo'shnilar bir-birining xonadoniga tashrif buyuradi. Navro'z bayrami munosabati bilan turli xil tadbirlar uyushtiriladi, xo'roz urishtiriladi, konsert uyushtiriladi, xom tuxum urishtiriladi, kurash tushiladi. Kurash tushuvchi polvonlar uchun osh damlanadi. Mahalliy aholi tomonidan Navro'z tadbiri o'tkaziladigan maydonlar bezatiladi. Tuxum urishtirish faqatgina mazkur hududdagi shia jamoalariga xos bo'lib, mazkur musobaqa Eronda amalga oshirilmaydi. Navro'z bayramida amalga oshiriladigan eng muhim va ezgu ishlardan biri urishganlarni yarashtirish, gina-kuduratlarni unutish, qarzlarni uzish hisoblanadi.

«Qoshchinon» ayollar tomonidan o'tkaziladigan marosim bo'lib, qizlarni nikoh marosimiga (kelinlikka) tayyorlash hisoblanadi. Marosim davomidan ip bilan qosh terilib, yuz tozalanadi. «Xinobandon» nikoh to'yi bilan bog'liq marosimlardan biri bo'lib, kuyovning yaqinlari tomonidan kelinning uyida amalga oshiriladi. Kelin milliy kiyimlar bilan qaytadan kiyintirilib, xina qo'yiladi. Kelin va kuyovning boshida Qur'on ushlanadi, suv ichiriladi, oynaga qaratiladi.

Navro'z bayramidan bir kun oldin ham erkag-u ayol xina qo'yadi. Shuningdek, Ramazon va Qurbon haytidan oldin ham ayollar qo'llariga xina qo'yadilar. Shia jamoalarida barcha bayramlar umumiy nom bilan «hayit» deb atalib, mazkur bayramlardan oldin ham qo'llarga xina qo'yiladi.

Farzand tug'ilganda amalga oshiriladigan eng muhim vazifalardan biri, bu unga munosib ism tanlash hisoblanadi. Shia jamoalarida bugungi kunda arabiy ismlar qo'yish urfga kirgan bo'lib, ulardan eng mashhurlari, Ahmad, Ali hisoblanadi. Gaxvora bandon farzand tug'ilishi bilan bog'liq marosimlardan biri bo'lib, beshik to'yga to'g'ri keladi. Gaxvora bandon

chaqaloq bir yoshga to'lganda yoki olti oylik bo'lganda amalga oshiriladi. Chaqaloqning yoshi katta kayvoni ayollar tomonidan beshikka qo'yilishi ham mazkur marosimning bir qismi hisoblanadi. Chaqaloqning qorin sochi olinishi ham mazkur marosimda amalga oshiriladi yoki chaqaloq yetti kunlik bo'lganida ham qilinishi mumkin. Aqiqa qilib, qo'y so'yiladi.

Bibi Mushkulkushod marosimi (o'zbekcha «mushkul» – qiyinchilik, «kushod» – yechim, ya'ni «qiyinchiliklarni hal etuvchi») Ushbu marosim insonlarning biror-bir narsaga ehtiyoji bo'lganida, qandaydir istagi amalga oshishini niyat qilganida yoki kasallik paytlarida o'tkaziladi. Bibi Mushkulkushod marosimi istalga paytda o'tkazilishi mumkin. Bibi Mushkulkushod ayollar tomonidan o'tkazilib, marosim davomida «Yosin» surasidan tilovat qilinadi. Non yopilib, barchaga tarqatiladi. Marosimda Ali (r.a.) vosita qilinib, niyatlarning amalga oshishi Allohdan so'raladi.

Muhammad Payg'ambar (s.a.v.), Fotimayi Zahroning, imomlarning tug'ilgan kunlari va vafotlari ham alohida ahamiyatga ega bayramlardan sanaladi. Shuningdek, Ali (r.a.) va Fotimayi Zahroning to'ylari kuni ham bayram sifatida nishonlanadi.

Shia jamoalarida dafn marosimida marhumning oldida navxaxonlik va ravxaxonlik qilinadi. Dafn marosimi an'analardan biri «uch oqshomi» bo'lib, mazkur marosim marhum vafot etganidan uch kun o'tgach amalga oshirilib, unda marhumga atab Qur'on tilovat qilinadi. Uni o'tkazilish majburiy ishlardan biri hisoblanadi. Mazkur marosim so'ngida «bel ochdi» qilinadi, ya'ni janozada bel bog'laganlar qiyiqchasini yechadilar.

XULOSA

Eroniylarning etnik identikligini shakllantirishning asosiy tarkibiy qismi shialik hisoblanadi. Masalan, shahar aholisining aksariyatida «shia» va «eroniy» tushunchalarini birdek qabul qiladi. Masalan, ko'pchilik sunniylar nazdida shialik eroniylar milliy e'tiqodi bilan bog'liq, chunki islomning shialik mazhabiga e'tiqod qiluvchilarning aksariyati Eronda yashaydi.

Samarqand shia jamoalari tomonidan o'tkaziladigan «Ashuro», «shome g'aribon», «Bibi mushkulkushod», «xinobandon», Navro'z, «qoshchinon» kabi marosimlar ularning hayotida muhim o'rin egallab, bugungi kunga qadar saqlanib qolgan.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

REFERENCES

1. Аверьянов, Ю., & Сеитов, Э. (2018). Обрядовая жизнь шиитов Ирана Бухары по данным полевых исследований. In Т. В. Котюкова (Ed.), Оазисы Шелкового пути: современные проблемы этнографии, истории и источниковедения народов Центральной Азии: К 100-летию доктора исторических наук Балкис Халиловны Кармышевой (p. 762). Moscow.
2. Арапов, Д. Ю. (1982). Бухарское ханство в русской востоковедческой историографии. Москва.
3. Авдоев, Т. В. (2016). Историко-теософский аспект езидизма. Москва.
4. Богданов, Л. Ф. (1909). Персия в географическом, религиозном, бытовом отношении. Санкт-Петербург.
5. Петрушевский, И. П. (1966). Ислам в Иране в VII–XV веках: Курс лекций. Издательство Ленинградского университета.
6. Сухарева, О. А. (1966). Бухара. XIX – начало XX в.: Позднефеодальный город и его население. Москва.
7. Литвинов, В. П. (2019). Исторический опыт Российского государства в организации и регулировании паломничества мусульман Средней Азии [Doctoral dissertation]. Елец.
8. Лещенко, В. О. (2023). Шиитская ритуальная практика самобичевания: культурный и религиозный аспекты. In В. Р. Боровой (Ed.), Проблемы современного востоковедения: Материалы III Международной научно-практической конференции (Минск, 29–30 июня 2023 г.). Белорусский государственный университет.
9. Джумаев, А. Б. (2010). Традиция ашуро у иранцев Бухары как социокультурный и художественный феномен. In Мир ислама: история, общество, культура: Тезисы докладов II Международной научной конференции (28–30 октября 2010 г.).
10. Derviş, L. (2021). Özbekistan İranilerinin tarihine kısa bir bakış. Selçuk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Dergisi, (51), 12.
11. Derviş, L. (2020). Turkestanskiye Vedomosti gazetesi'nin Türkistan tarihi kaynağı olarak önemi / The importance of the newspaper Turkestanskiye Vedomosti as the source of information on the history of Turkestan. Selçuk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Dergisi, 1(49), 365.
12. Toxtiyev, Sh. R. (2022). Markaziy Osiyoda shia jamoalarining shakllanishi va o'ziga xos xususiyatlari. Bookmany Print.
13. Курбанова, М. Б. (2019). Традиция поминания Фатимы-и Захро шиитской общиной Бухары. In Этнос и конфессия: Материалы Восемнадцатых Международных Санкт-Петербургских этнографических чтений (pp. 102–104). ИПЦ СПбГУТД. EDN DYBQHG.
14. Россия – Средняя Азия: Политика и ислам в конце XVIII – начале XXI века. (2013). Москва.
15. O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasi. (2025, 4–6 iyul). 02-02/02/1/1846-sonli xat asosidagi dala tadqiqoti materiallari. Samarqand viloyati, O'zbekiston–Eron do'stlik jamiyati, Panjob masjidi, Murod Avliyo masjidi.

1. Averyanov, Yu., & Seitov, E. (2018). Obyadovaya zhizn shiitov Irana Bukhary po dannym polevykh issledovaniy. In T. V. Kotyukova (Ed.), Oazisy Shelkovogo puti: Sovremennye problemy etnografii, istorii i istochnikovedeniya narodov Tsentralnoy Azii: K 100-letiyu doktora istoricheskikh nauk Balkis Khalilovny Karmyshevoy (p. 762). Moscow.
2. Avdoyev, T. V. (2016). Istoriko-teosoficheskiy aspekt yezidizma. Moscow.
3. Bogdanov, L. F. (1909). Persiya v geograficheskom, religioznom, bytovom otnoshenii. Saint Petersburg.
4. Petrushevskiy, I. P. (1966). Islam v Irane v VII–XV vekakh: Kurs lektsiy. Leningrad University Press.
5. Sukhareva, O. A. (1966). Bukhara. XIX – nachalo XX v.: Pozdnefeodalnyy gorod i ego naselenie. Moscow.
6. Litvinov, V. P. (2019). Istoricheskiy opyt Rossiyskogo gosudarstva v organizatsii i regulirovani palomnichestva musulman Sredney Azii [Doctoral dissertation]. Yelets.
7. Leshchenko, V. O. (2023). Shiitskaya ritualnaya praktika samobichevaniya: Kulturnyy i religioznyy aspekty. In V. R. Borovoy (Ed.), Problemy sovremennogo vostokovedeniya: Materialy III Mezhdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferentsii (Minsk, June 29–30, 2023). Belarusian State University.
8. Dzhumayev, A. B. (2010). Traditsiya Ashuro u irantsev Bukhary kak sotsiokulturnyy i khudozhestvennyy fenomen. In Mir Islama: Istoriya, obshchestvo, kultura: Tezisy dokladov II Mezhdunarodnoy nauchnoy konferentsii (October 28–30, 2010).
9. Derviş, L. (2021). Özbekistan İranilerinin tarihine kısa bir bakış. Selçuk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Dergisi, (51), 12.
10. Derviş, L. (2020). Turkestanskiye Vedomosti gazetesi'nin Türkistan tarihi kaynağı olarak önemi / The importance of the newspaper Turkestanskiye Vedomosti as the source of information on the history of Turkestan. Selçuk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Dergisi, 1(49), 365.
11. Toxtiyev, Sh. R. (2022). Markaziy Osiyoda shia jamoalarining shakllanishi va o'ziga xos xususiyatlari [Formation and specific characteristics of Shiite communities in Central Asia]. Tashkent: Bookmany Print.
12. Kurbanova, M. B. (2019). Traditsiya pominaniya Fatimy-i Zakhro shiitskoy obshchinoy Bukhary. In Etnos i konfessiya: Materialy Vosemnadtsatykh Mezhdunarodnykh Sankt-Peterburgskikh etnograficheskikh chteniy (pp. 102–104). Saint Petersburg State University of Industrial Technologies and Design.
13. Rossiya – Srednyaya Aziya: Politika i islam v kontse XVIII – nachale XXI veka. (2013). Moscow.
14. Committee on Religious Affairs of the Republic of Uzbekistan. (2025, July 4–6). Field research materials based on Letter No. 02-02/02/1/1846 dated June 27, 2025. Samarkand Region, Uzbekistan–Iran Friendship Society, Panjob Mosque, and Murod Avliyo Mosque.